



SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

**MAGISTRANTLARNING
XVIII-ILMIY KONFERENSIYASI
MATERIALLARI**

(ANIQ, TABBIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR)



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

**MAGISTRANTLARNING
XVIII-ILMIY KONFERENSIYASI
MATERIALLARI**

(ANIQ, TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR)

*SamDU Ilmiy texnik
kengashida muhokama qilingan
va nashrga tavsiya etilgan
(2018 yil 19 mart, 5-bayonnoma)*



Samarqand–2018

ADABIYOTLAR

1. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent: Fan, 1977. – B. 15-19; Mukarramov M. O'zbek tilida o'xshatish. – Toshkent: Fan, 1976. – B. 11-15; Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. – Toshkent: Fan, 1982. – B. 71-79.
2. Usmonov S. Metafora// O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1964. – №4. – B. 34-36; Mirtojiyev M. Lingvistik metaforalar tasnifi// O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1973. – №4. – B. 57-61; Toxirov Z. Metafora leksema-sememasining pragmatic sxemasi // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1983. – №1 – B. 74-77; Qobuljonova G. Metafora-nominatsiyaning asosi sifatida // (An'anaviy Ayub G'ulomxonlik materiallari.) 2-chiqish. – Andijon, 1995. – B. 90-91.
3. Aliqulov T. Metonimiya va polisemiya // Tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlar / FA TAI to'plami. 6-kt. – Toshkent: Fan, 1965. – B. 59-61; Mirtojiyev M. Metonimiyaning sodir bo'lishi // O'zbek tili leksikologiyasi va grammatikasi masalalari. – Toshkent: TUN, 1978. – B. 48; Toxirov Z. Metonimik hosila ma'nolarda pragmatic semalar // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1985. – № 3. – B. 28.

XX ASRNING 90-YILLARIDA ITALIYA SIYOSIY VAZIYATIDAGI TANGLIK

M. Raxmatullayev, Akmal Narziyev

Mutaxassislik: 5A120302-Tarix (yo'nalishlar va mamlakatlar bo'yicha) (2-bosqich)

90-yillarga kelganda, Italiya ijtimoiy-siyosiy hayotidagi beqarorlik va qarama-qarshiliklar yanada kuchaydi. Keskin siyosiy inqirozlar asosan, mo'tadil kelishuvlar bilan tugar edi. IKPning 1991 yil boshlarida bo'lib o'tgan XX syezdida, uning saflarida ixtilof oqibatida ajralish yuz berdi. Ko'pchilik, partiyaning Italiyada demokratiyaning o'rnatish va himoya qilishdagi xizmatlarini unutishni o'ziga ma'qul ko'rdi. Natijada, kommunistlarning katta qismi (a'zolarining deyarli 2/3 qismi) so'l kuchlarning Demokratik partiyasini (DPL) tashkil etishdi. Yoshlar kommunistik harakatining sobiq yetakchisi va kompartianing kundalik gazetasi hisoblangan "Unita"ning redaktori Massimo D'Alema 1994-yildan beri DPLning kotibi hisoblanadi. DPL Yevropadagi sotsial-demokratik harakatlarning saflariga singib (qo'shib) ketdi.

XDP uchun ham qiyin kunlar boshlanib ketdi. 90-yillarning boshidayoq XDP kommunistlarning davlat tepasiga chiqishiga to'siq bo'lgan holda, davlatni boshqa partiyalar kaolitsiyasida boshqardi. Bu vaziyatni beqaror muvozanat deb atashdi. 1992 yil fevralida Milandagi partiyalar uyining direktori M.Kyez qamoqqa olindi¹.

Sobiq premyer-ministr, xristiyan demokratiyasining ustunlaridan biri sanalgan D.Andreattiga nisbatan partiyaning noqonuniy yo'llar yordamida mablag' bilan ta'minlash, mafiya bilan aloqadorlikda va buyurtmali suiqasdlar uyushtirish bilan shug'ullanganlikda gumon qilinib ayb qo'yildi.

Siyosiy tus berilganligi va ayrim suiste'mollarga yo'l qo'yilganligiga qaramasdan, g'ayri qonuniy harakatlarni fosh qiluvchi "Toza qo'llar" kompaniyasi yetarli darajada samarali bo'ldi va Italiyada yangi siyosiy kurash turi paydo bo'ldi, ya'ni korrupsiyaga qarshi kurashish siyosiy xarakterga ega bo'ldi.

1992-yildagi saylovlarda Shimol Ligasi katta muvaffaqiyatga erishdi. Chunonchi, parlamentda 55 ta (1 ta qarshi) va senatda 25 ta (1 ta qarshi) o'ringa ega bo'ldi. Shimol Ligasi o'ng partiyalar bilan kaolitsiyada bo'lish kursini qo'llab-quvvatlaydi. O'ng qanotga oid bo'lgan siyosiy guruhlardan yana biri, ya'ni- Fashistik o'tmishdan uzoqlashgan holda

¹ Италия (север и Центр) [Текст]: Путесводитель - 7-с изд. - М.: Авангард, 2007. – 28 с. - (Путесводитель «Пти Фюте»).

Finii neofashizmning ortodokslari (mustahkam e'tiqodli, sobitqadam, sodiq) bilan aloqani uzdi va 1993-1995 yillar orasida bu partiyani postfashistik Milliy alyansga aylantirdi. O'ng markazchi guruhlarining asosiy harakatlantiruvchi kuchi 1993-yilda tashkil topgan "Olg'a, Italiya" nomli partiya edi. Bu partiya markaziy siyosiy kuch bo'lishga da'vogarlik qiladi. "Olg'a, Italiya" partiyasining tashkilotchisi va yetakchisi S.Berluskoni hisoblanadi².

Berluskoni "Ozodlik Alyansi" nomli saylovoldi blokini tashkil etdi. Blokka "Olg'a, Italiya" partiyasidan tashqari neofashistik Milliy Alyans va o'nglarning siyosiy gruppirovkasi hisoblangan Shimoliy Liga ham kirgan edi. Yangi kaolitsiya 1994 yil martida bo'lib o'tgan saylovlarda 38% ovoz bilan g'alaba qozondi. Bu saylovlarda boshqa nufuzli guruh va partiyalarning obro'si ancha tushib ketdi. Masalan, XDP uchun saylovchilar 11% ("Toza qo'llar operatsiyasi boshida 31,7% qarshi ovoz"), sotsialistlar uchun esa bor yo'g'i - 2,2% (oldingi saylovlardagi 14,5 % ga qarshi) ovoz berdi.

Bosh vazir Berluskoniga iqtisodiy muammolarni bartaraf etishdan tashqari, "Ozodlik Alyansi"ning bir-biri bilan muxolif bo'lib qolgan ikki vakilini murosaga keltirish muammosi ham paydo bo'ldi. Shimoliy Liga o'ng markazchi kaolitsiyalardan chiqib, parlamentdagi ko'pchilikka barham berganida, Berluskonining hokimiyat tepasiga kelganiga bor-yo'g'i 7 oy bo'lgan edi. Bu siyosiy voqealar 1994-yil dekabrda iste'foga chiqishga majbur qildi. Italiyadagi jamoatchilik orasida Berluskonining television saltanatini bitta kanalga cheklash va reklama monopoliyasiga barham berish haqidagi fikrlar to'liqini yuzaga chiqdi. Berluskoni bu g'avg'olardan omon qolgan bo'lsada, yana darhol yangi korrupsiya mashmashasiga aralashib qoldi. Berluskoni poraxo'rlik va soliq nayranglarida, hamda neofashistik Milliy Alyans va Shimoliy Liga separatizmini qo'llab-quvvatlash kabi jinoiy ishlarda ayblanib, sud oldida javob berishga majbur bo'ldi. Unga, Kraksi davridagi saylov kompaniyasini noqonuniy moliyalashdagi "xizmatini" ham eslatib qo'yishdi. Sud uni uch marotaba aybdor deb hukm chiqargan bo'lsada, yuqori malakali advokatlarining sayi-harakati bilan qamoq jazosini o'tashdan qutulib qolaverdi³.

Mediamagnat iste'foga chiqqanidan so'ng prezident O.L.Skalfaro 1995-yil yanvarida Berluskoni hukumatida moliya vaziri lavozimida faoliyat ko'rsatgan texнократ Lamberto Diniga partiyasiz hukumat tuzish vazifasini topshirdi. Lamberto Dini o'z davrida VXF da faoliyat ko'rsatganligi uchun, xalqaro moliyaviy doiralarida taniqli shaxs edi. Dini hukumatining asosiy maqsadi mamlakatda moliyaviy tizimni sog'lomlashtirish bo'ldi.

1996-yil aprelida bo'lib o'tgan saylovlarda So'l Demokratik Partiyaga mansub bo'lgan eks-kommunistlar (ustunlik qilgan) muhim o'rin tutgan "Zaytun daraxti" nomli so'lmarkazchi bloki Berluskoni yetakchilik qilgan o'ng markazchi kaolitsiyadan birozgina farq bilan ustunlik qildi. Bu blokning tashkilotchisi va yetakchisi iqtisodiyot professori Romano edi. Romano Prodi o'zining siyosiy faoliyatini xristian demokratlar safida boshlagan bo'lib, u nafaqat Italiyada, balki Yevropadagi ishbilarmonlar doirasida ham e'tiborli arbob edi. Bu hukumat nisbatan barqarorroq (bardoshliroq, chidamliroq) bo'lib, 2,5 yil faoliyat ko'rsatdi. Ammo, 1998 yil kuzida byudjet masalasi bo'yicha parlamentda bo'lib o'tgan qizg'in bahslardan so'ng, R.Prodi iste'foga chiqdi. Prezidentning topshirig'i bilan tuzilgan yangi koalitsion o'ng markazchi hukumatni 49-yoshli eks-kommunist (SDP a'zosi) Massimo D Alema boshqardi. U Italiya tarixida sobiq IKP ning hokimiyat tepasiga chiqqan birinchi vakili edi. Massimo D Alema hokimiyatni 18 oy davomida boshqardi⁴.

² Авилова А. Структурные преобразования в Италии // МЭ и МО. - 1998 - № 8.

³ Авилова А. Структурные преобразования в Италии // МЭ и МО. - 1998 - № 8.

⁴ Гайдук В. Италия: серьезный собеседник в Европе // Международная жизнь. - 1996. - № 11-12.

ADABIYOTLAR

1. Италия (север и Центр) [Текст]: Путеводитель - 7-е изд. - М.: Авангард, 2007. - 280с. - (Путеводитель «Пти Фюте»).
2. Андреев С.С., Бабышев Л.С. Италия. - М: Академия, 2001. - 432 с.
3. Авилова А. Структурные преобразования в Италии // МЭ и МО. - 1998 - № 8.
4. Гайдук В. Италия: серьезный собеседник в Европе // Международная жизнь. - 1996. - № 11-12.

XIX ASR IKKINCHI YARMI SAMARQAND TARIXI MANBASHUNOSLIGIGA OID MA'LUMOTLAR

Nodir Xushvaqtov

***Mutaxassislik: 5A120304-Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqotlar
metodlari (mamlakatlar bo'yicha)***

Annotatsiya: *Ilmiy maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi Samarqand tarixi manbashunosligi arxiv hujjatlar asosida yangicha ilmiy tahlil etishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi fondida saqlanayotgan Zarafshon okrugi tarixiga oid arxiv hujjatlarning muhim ahamiyatga ega ekanligi yoritilgan. Mavzuni o'rganishda uning bugungi kungacha ilmiy jihatdan o'rganilganlik darajasi ham yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Samarqand, Zarafshon, okrug, mahkama, manbashunoslik, amirlik, arxiv, fond.*

Markaziy Osiyoning qadimiy Samarqand shahri o'zining ko'p ming yillik tarixiga ega hisoblanadi. O'zbek davlatchiligi tarixiga oid bo'lgan manbalarni o'rganar ekanmiz, deyarli barcha tarixiy bosqichlarda Samarqand tarixi haqida ma'lumotlarni ilmiy tadqiqotlar natijasida o'rganishimiz mumkin. O'zbekistonning eng yangi tarixini yaratishda XIX asrning ikkinchi yarm – XX asr boshlari davri muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. O'zbekiston tarixini yoritishda Samarqandning yuqorida keltirilgan xronologik chegardagi tarixi ham muhim hisoblanadi.

Samarqand XIX asrda Buxoro amirligi tarkibida bo'lgan. Bu davrda amirlik hududi qariyb 200 ming kv.km.ni tashkil etgan. Amirlik chegarasi janubda Amudaryoning chap qirg'og'idan boshlanib, Sirdaryogacha shimolda qozoq juzlari, sharqda Pomir tog'lari, g'arbda Xiva xonligi bilan chegaradosh bo'lgan. Buxoro va Samarqand shaharlari joylashgan Zarafshon vodiysi amirlikning markaziy hududi hisoblangan.[1] Samarqandning bugungi kundagi shahar qismi tarixiga biroz to'xtalib o'tish joizdir. XIX asrning ikkinchi yarmida Samarqand yangi shahar qurilishi uchun g'arb tomondan eski shaharga yondoshgan va Amir Temur Ko'ksaroyi o'rnida turgan o'rta asr qo'rg'oni markaz qilib olingan. U eski shahardan chuqur kanal orqali ajralgan, balandligi 10 metrga teng bo'lgan tepalikda mudofaa devoir bilan o'ralgan mavzedan iborat bo'lgan. 1883-1868-yillardan keyin qo'rg'on buzilgan. Hozirgi vaqtda uning o'rnida ma'muriy binolar va Hamid Olimjon nomidagi opera va balet teatri joylashgan. Usha davrda shaharni eski va ayngi qismlarga, bugungi kundagi Universitet xiyoboni ajratib turgan [2].

Biz o'rganayotgan tadqiqot mavzuning manbaviy bazasini rasmiy ish yuritish hujjatlari, matbuot va arxiv materiallari, xotiralar tashkil qiladi. Ma'lumotlar ko'lami jihatidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivining hujjatlari jamg'armasidagi arxiv materiallardan qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin [3]. Samarqand tarixining yoritilishida O'zRMDA fondida saqlanayotgan 5 –jamg'arma "Zarafshon okrugi arxiv hujjatlari", 18-jamg'arma "Samarqand viloyati arxiv hujjatlari", 20-jamg'arma "Samarqand uyezdi boshqarmasi arxiv hujjatlari" dan iborat bo'lib, ushbu jamg'armalarda saqlanayotgan qimmatli arxiv hujjatlar Samarqand tarixini yoritib berishda hujjatlarining mahkama ish yuritish uslubidagi manbaviy ahamiyatini aniqlash muhim hisoblanadi.